ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 31.12.2025 · Accepted: 03.03.2026 · Published: 28.03.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/t6q6vc19

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 1(2), 2026
www.jnculture.uz

Musiqa va uning sirli dunyosida yoshlar tarbiyasi

(Music and Its Mysterious World in Youth Education)

Saibjon Begmatov

The Department of History and Theory of Uzbek Maqom,
The Institute of Uzbek national musical art named after Yunus Rajabiy,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: soibjonbegmatov@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-8395-2748

Annotatsiya

Ushbu maqolada musiqaning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyati kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Xususan, musiqa san’atining ruhiy-estetik manba sifatida inson tafakkuri, his-tuyg‘ulari hamda ma’naviy kamolotiga ko‘rsatadigan ta’siri ochib beriladi. Muallif musiqaning nafaqat badiiy hodisa, balki ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida shakllanib, avlodlar davomiyligida milliy qadriyatlar, an’analar va ma’naviy merosni saqlash hamda uzatishdagi o‘rnini asoslab beradi.

Maqolada ayniqsa ijrochilik san’ati musiqaning mazmun-mohiyatini anglashda muhim vosita sifatida talqin qilinib, uning an’anaviy va nazariy asoslari yoritiladi. Shu bilan birga, ustoz-shogird an’anasi doirasida shakllanadigan tarbiyaviy mezonlar, ijodiy tajriba va ma’naviy kamolot omillari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Musiqa orqali insonda estetik did, mustaqil fikrlash qobiliyati, ma’naviy barkamollik va ijodiy faollik rivojlanishi alohida ta’kidlanadi.

Tadqiqot natijalari musiqaning inson ruhiyatini tarbiyalash, uning ichki dunyosi va dunyoqarashini boyitishdagi beqiyos ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuningdek, maqolada musiqiy merosni zamonaviylik mezonlari asosida o‘rganish va uning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurati ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: musiqa, ijrochilik, sozanda, maqom, tafakkur, ma’naviyat, ta’lim, amaliyot, ustoz, tarbiya.

Abstract

This article analyzes the role and significance of music in human life based on a comprehensive approach. In particular, it examines the impact of musical art as a spiritual and aesthetic source on human thinking, emotions, and the process of personal spiritual development. The author substantiates that music functions not only as an artistic phenomenon but also as a socio-cultural process that plays a crucial role in preserving and transmitting national values, traditions, and spiritual heritage across generations.

Special attention is given to performing art as an essential means of understanding the essence of music, with its traditional and theoretical foundations being explored. In addition, the study provides a scholarly analysis of educational criteria, creative experience, and the factors of spiritual formation that develop within the framework of the “teacher–student” tradition. It is emphasized that music contributes to the development of aesthetic taste, independent thinking skills, spiritual maturity, and creative activity of the individual.

The results of the research demonstrate the exceptional importance of music in shaping the spiritual world of a person, enriching their inner life, and forming their worldview. The article also substantiates the necessity of studying musical heritage based on contemporary principles and highlights the importance of effectively utilizing its educational potential.

Keywords: music, performance, musician, maqom, thinking, spirituality, education, practice, teacher, upbringing.

Аннотация

В данной статье на основе комплексного подхода анализируются роль и значение музыки в жизни человека. В частности, раскрывается воздействие музыкального искусства как духовно-эстетического источника на мышление, чувства и процесс духовного совершенствования личности. Автор обосновывает, что музыка выступает не только как художественное явление, но и как социально-культурный процесс, играющий важную роль в сохранении и передаче национальных ценностей, традиций и духовного наследия в преемственности поколений.

Особое внимание в статье уделяется исполнительскому искусству как важному средству постижения сущности музыки, освещаются его традиционные и теоретические основы. Наряду с этим, в научном аспекте анализируются воспитательные критерии, творческий опыт и факторы духовного становления, формирующиеся в рамках традиции «учитель–ученик». Подчеркивается, что музыка способствует развитию эстетического вкуса, способности к самостоятельному мышлению, духовной зрелости и творческой активности личности.

Результаты исследования демонстрируют исключительное значение музыки в воспитании духовного мира человека, обогащении его внутреннего содержания и формировании мировоззрения. Также в статье научно обосновывается необходимость изучения музыкального наследия на основе принципов современности и эффективного использования его воспитательного потенциала.

Ключевые слова: музыка, исполнение, музыкант, маком, мышление, духовность, образование, практика, учитель, воспитание.

San’at – bir qarashda muayyan sohani anglatsa, keng ma’noda har bir soha egasining mukammal egallagan kasbiy mahoratiga berilgan yuksak e’tirof ko‘z o‘ngimizga keladi. Bu jarayon musiqa san’atida insoniyat hayoti va ijodining shakllanib taraqqiy etishida hamroh, faoliyatini qo‘llab quvvatlaydigan ruhiy manbaa ekanligi e’tirof etiladi. Musiqa tabiatan teran mazmunli va ohanglarga boy bo‘lishining sabablaridan biri shu bo‘lsa ajab emas. Bu albatta musiqaning bir tomoni bo‘lsa, ikkinchi tomoni albatta uning tinglovchisi, shinavandasi turishi aniqdir. Zero, buning zaminida har bir insonning ohangga oshnoligi, ohangdan bahra olishi, zavqlanishi, kuch-quvvat va oziq olishi muqarrardir.

Musiqa eshitgan va tushuna olgan inson qalbida ezgulik uyg‘onib, zarracha ham g‘arazga o‘rin qolmaydi, inson ruhiyati poklanib, kishida g‘ayrat, shijoat uyg‘otadi. Mumtoz namunadagi musiqa ohanglari qalb bilan tinglagani moziyga sayohat qildiradi. Musiqa aynan bir kishini kuldirib - yig‘lata oladi, kerak bo‘lsa inson tanasini turli jozibalar ko‘rinishida harakatga keltirish xususiyatiga egadir. Musiqani eshitish inson asab tizimini tinchlantirib, ko‘nglini quvvatlantirsa, ruhiyati ma’naviy oziqlanadi. Shu bois bo‘lsa kerak, azaldan musiqa ikki ulkan yo‘nalishda shakllanib rivojlangan.

Musiqa san’atdagi har ikki yo‘lalishning tabiiy va ijodiy asoslari borki, ana shu jihatlar ularning uyg‘unligini va o‘ziga xosliklarida mujassam topgandir. Shu bois musiqa san’atida faoliyat olib borish yoki ijod qilishning o‘ziga xos sodda va murakkab asoslari bor. Uning siru sinoatlarining asosi, asl xalq qadriyatlari, an’anasi, ruhiyati, ma’naviyati va amaliyoti bilan bevosita bog‘liqdar. Ularning barchasi milliylik va zamonaviylik mezonlari negizida go‘zal uyg‘unlashgan. Zamon va makon oqimida har biri o‘ziga xos evrilib, xalqimizning ma’naviy merosi sifatida avlodlardan avlodlarga o‘tib yashab kelmoqda. Eng muhimi bu ikki ulkan yo‘nalishlarida yuzaga kelgan asarlarning barchasi musiqa ijodkorlarining tafakkuri va bilimi, ilmi va idrokining samarasi sifatida gavdalangan.

Musiqa dunyosi mo‘jizasini namoyon etish mumkin bo‘lgan amal bu – ijrochilikdir. Ya’ni, musiqaning jonli jarayoni. Yo‘nalishlarning ijrochilik qoidalari va an’analariga ko‘ra oddiydan murakkabgacha bo‘lgan mezonlari va shakllarining o‘ziga xosligi, sodda va murakkablik darajalari, naziraviy va badihaviy omillariga asoslanib ajratib olish mumkindir. Xalq musiqa yo‘nalishi sodda asarlar o‘rin olgan bo‘lsa, murakkab jarayon mumtoz musiqa, ya’ni bastakorlik amallari orqali yuzaga kelgan ijod mahsullaridir. Mumtoz musiqaning eng yirik shakli esa, maqomlar hisoblanadi. “Maqomlarning yuzaga kelishi inson tafakkurining juda uzoq davrlarda olib borgan izlanishlarining samarasidir” [1, b.50]. Ya’ni, mumtoz kuy, ashulalarning maqomot tartibi asosida ijod qilingan namunalaridir.

Odatda, kuy va ashulalar insoniyatning badiiy ehtiyojlarini go‘zal, mutanosib musiqiy omillar, ya’ni mukammal ifoda vositalarini muayyan tirtibga solingan shakllaridir. Musiqashunos O.Matyoqubov esa - «Kuy, ohang – inson ruhidagi ilohiy kayfiyat ifodasi» [2, b. 14] deb ta’rifini keltirgan. Demak, ular avvalo e’tiqod va so‘ngra ularning hayot tajribalariga moslashib, jonlanishida yuzaga keladigan tafakkur mahsulotidir.

Mumtoz musiqa, xususan maqomlar haqidagi yirik manbalar, ya’ni tarixda bitilgan musiqiy risolalarni aksariyati faylasuflar, tarixchilar, tabiblar, allomalar tomonidan yaratilgan. Ular orasida bilimdon sozanda-xonanda ham uchraydi. Musiqiy risolalar bitgan olimlarning aksariyati olamshumul ilmiy tafakkurga ega bo‘lganlar. Bu borada Xorazmiy, Kindiy, Kalabodiy, Zayla, Farobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Jomiy, Fitrat kabi allomalarning nomlari tirixga bitilgan bo‘lib, yaratgan risolalari ta’lim jarayonida qo‘llanib kelinadi. Ushbu allomalarni hayratga solgan ham musiqaning sirli ohanglari bo‘lgan. Zeero, ular musiqadan ruhiy ta’sirlanib tetiklashgan, juda katta ilhom, kuch, g‘ayrat olgan. Pirovardida cheksiz ilohiy tasavvur olishga muyassar bo‘lgan. Shu bois musiqaning sirli dunyosi nimada ekanligini riyozot (matematika), geometriya (xandasa), tibbiyot, astronomiya (falakiyot) fanlari orqali tadqiq etishga uringanlar. Musiqa haqidagi kitoblar

kamligining sababi ham shunda bo‘lsa ajab emas. Lekin, katta mamnuniyat bilan qayd etish o‘rinliki, jamiiyki ijodkorlar o‘zlarining ijodlarida (kitoblarida) albatta musiqaning (ilmi, amaliyoti, namoyandalari, terminalogyasi, cholg‘ulari va boshqa) jihatlariga e’tibor qaratganliklarini ko‘ramiz. Ijrochilik masalalari esa bu borada kam e’tiborli bo‘lganligini ko‘rishi mumkin.

Odatda, til har qanday millatning borligini anglatsa, musiqa uning madaniyati - ma’anaviyatining buyukligini in’ikos etadi. Bu borada o‘zbek xalqining ibratli ma’naviy dunyosi hamda mumtoz musiqa merosi bor. Maqom so‘zini tinglamagan insonning o‘zi yo‘q albatta. Lekin, uni hamma ham to‘laligacha anglay olmasligi mumkin, yoki maqomlar haqida yetarlicha ma’lumotga ega emasdir. Bu oddiy hol, chunki, maqomlar bu falsafiy tushunchaga ega bo‘lgan va murakkab qonun-qoidalar negizida yuzaga kelgan sinkretik mukammal musiqiy janrdir. Ya’ni, ohang, so‘z va harakatning go‘zal uyg‘unligini ifoda etuvchi san’at shaklidir. Maqom - bu falsafa, ilm, obraz, musiqiy cholg‘ulardagi muayyan boshlang‘ich parda, asar va albatta o‘zbek mumtoz musiqa merosining yetakchi janridir.

Falsafa nuqtai nazaridan maqom bu musiqa vositasida dunyoni idroklash, obrazlar olami, taassurotlar orqali mukammallikka intilishdir. Uning bosh g‘oyasi ma’naviy faollikdir, mohiyati esa insoniyatni kamolotga undaydigan va dunyoqarashini shakllantiradigan omil. Mashoyiqlar maqom san’ati ulkan ummon deb ta’riflaydilar. Qanchalik bahramand bo‘lsangiz, shunchalik o‘z sehrini namoyon etaveradi.

Musiqa insoniyat uchun berilgan ilohiy ne’mat. Inson musiqa orqali o‘zini ko‘rishi, olamni tasavvur etishi, aks etishi, tarbiya olishi, saboq berishi, boshqarishi, davolanishi mumkin. Musiqa go‘yoki, tinglash uchun berilgan o‘tkinchi tuyg‘u. Lekin, anglansa - bu tarix, bu an’ana, bu qadriyat, bu ma’naviyat, bu ma’rifat, bu tarbiya. Kim nimani xohlasa istaganini topadigan sirli mo‘jizalar dunyosidir. Faqat unga shaydo bo‘lish kerak, u bilan yashash kerak, hayotida uni oshno qilib faoliyatini u bilan muntazam sug‘orib turishi lozim bo‘ladi. Shundagina musiqaning

sirli dunyosini anglaydi, sehrli va mo‘jizaviy ta’sirini sezadi, o‘zini har doim ham tetik va zabardast holatida yurishini ta’minlaydi. Doimo hayotning bebaho ne’mat ekanligini, go‘zallik va ijodiyotning mislsiz qudratini his etib yashaydi.

Demak, musiqa insoniyatga ruhiy ozuqa, quvvat, xush kayfiyat, ijodiy ilhom, shijoat baxsh etadi. Shu bois kishi ohanglar sadosiga maftun bo‘ladi. Hazrat Navoiy ta’biri bilan aytganda: “Shodlik oshiruvchi xonanda: g‘amni tarqatuvchi sozanda... ko‘ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa xush ovozdan ozuq oladi... o‘zi chalib, o‘zi kuylasa, ko‘ngil mulkiga qo‘zg‘olon soladi” [3, b. 29]. Shu bois, alohida qayd etish joizki, musiqa san’atining bag‘ri keng, uning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni katta, Har bir inson shaxsiyatini shakllanishida uning ahamiyatini cheki yo‘q. O‘rta asr allomalari Farobiy va Ibn Sinolar bu borada o‘zlarining alohida fikrlarini bayon etib o‘tganlar.

Ibn Sino o‘zining qarashlarida chaqaloqligida ALLA tinglagan bolaning tafakkuri, o‘tkir bo‘lishi, tarbiyasi va odabi risoladagidek shakllanishini e’tirof etib, alla tinglamaganlarni xulqi nuqsonlarga to‘la bo‘lishini qayd etsa, Farobiy musiqani kuyidagicha ta’rifini keltiradi: “Musiqa shu ma’noda foydaliki, kimki fe’l atvori muvozanatini yo‘qotgan bo‘lsa, tartibga keltiradi, kamol topganlarini kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo‘lganlarning muvozanatini saqlaydi... Bu o‘z navbatida tanning sog‘ligi uchun ham foydalidir”.

Inson yoshi o‘tgan sari xotira susayishi uchraydigan hodisadir. Lekin, ko‘pchilik bunday holatdan mustasno bo‘lsada, boshidan o‘tganlar, masalan Ch. Darvin o‘zining xotirasi susayishi va fikrlashi pasayishini sezib, bu holatni quyidagicha izohlaydi: “Agar menga ikki bor dunyoga kelish nasib bo‘lganda edi, men hech bo‘lmaganda haftada bir necha she’r o‘qishni va bir qator musiqa namunalaridan tinglashni o‘zimga odat qilib olgan bo‘lardim”.

Musiqa namunalarini tinglash, madaniyatli tinglashni o‘zlashtirish, musiqadan ilhomlanish ko‘nikmasini shakllantirish hozirgi yosh avlod tarbiyasidagi eng muhim jihatlar hisoblanadi. Bu jarayon har bir yosh avlodni mustaqil fikrlashda

musiqiy ohanglar sehridan quvvatlanish, asab tizimlarini mustahkamlashga va o‘zini mo‘tadil tutish, madaniyatli munosabatda bo‘lish uchun xizmat qiladi. Eng muhimi ularda ustozona xislatlar shakllanishi, bilimli va ilmli tafakkurga ega bo‘lishlari, e’zozga loyiq bo‘ladigan jihatlar bilan sug‘orib, kamolotga yetaklaydi.

Musiqaning yosh avlod tarbiyasidagi muhim bo‘lgan jihatlar:

- musiqa san’atiga qiziqish va muhabbat uyg‘otadi;
- badiiy estetik didini rivojlantiradi;
- ma’naviy dunyosini boyitadi;
- mustaqil fikrlash, ijod etish va munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini hosil qiladi;
- xalqimizning qadriyatlari va an’analarni hurmat qilish va vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘ularini mustahkamlaydi.

O‘rta asrlar olimlaridan biri Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy” kitobida ustoz qanday bo‘lishi, shogirdlik shartlari nimalardan iborat ekani haqida batafsil ma’lumot beriladi: “Agar komil ustoz kim deb so‘rasalar, u pok mazhabli, o‘z aybini ko‘radigan, dono va tamizli kishidir, deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar ham bo‘lmasligi kerak. Agar shogirdlik binosi nimaning ustiga quriladi, deb so‘rasalar, irodat ustiga, deb aytgin. Irodat nima deb so‘rasalar, ustoz nimaiki aytsa, uni jon qulog‘i bilan eshitish, chin ko‘ngil bilan qabul qilish va vujud a’zolari orqali amalda ado etishdir. Agar shogird uchun nima yaxshi deb aytsalar, pok e’tiqod, deb ayt, chunki faqat e’tiqod kishini murodga yetkazadi...” [4, b. 28] Shu bois bo‘lsa kerak san’atda eng oliy maqom “Ustoz” deb ardoqlanib kelinadi.

Odatda, musiqiy talqinni o‘zi ko‘pjihatli mezondir. Musiqani anglash, idroklab uni so‘z bilan ifoda etish mislsiz ummon ichida suzib yurgan bilan barobardir. Ohang mislsiz jarayon, yo‘lni esa sanog‘i yo‘q, musiqa olamida yurish oson, lekin o‘z yo‘lingni topish mushkul. Unda ustoz ham yo‘lboshchi, yo‘l ko‘rsatuvchi, bilim

beruvchi, tarbiyalovchi, o‘rgatuvchi va kamolot sari yetaklovchi sifatida sarbonlik vazifasini o‘taydi.

Chunki musiqani, musiqiy ohanglar orqali ifoda etib kelingan va bu eng to‘g‘ri yo‘l ekanligini e’tirof etish lozimdir. “Xalq xonandalarining ijodiyoti doimo esda qoladigan, tashvishlantirgan, fikrlashga majbur etgan, insonlarni go‘zal, toza va boy qilgan” [5, b. 11] - deb xonandalar ijodiga baho beradi musiqashunos olim L.B.Dmitriev o‘zining tadqiqotlarida. Chunki, musiqa ijrochilik san’atining mahsuli, inson ruhiyatining ozug‘i, ma’naviy dunyosining manbaidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rajabov I. Maqomlar. — Tashkent, 2006. — 50 b.
2. Matyoqubov O. Maqomot. — Tashkent: Musiqa, 2004. — 14 b.
3. Navoiy A. Mahbub ul-Qulub. — Tashkent, 1972. — 29 b.
4. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy. — Tashkent, 2011. — 28 s.
5. Дмитриев Л.Б. Основы вокальной музыки. — М., 1968. — С. 11.

References

1. Rajabov, I. *Maqomlar* [Maqoms]. Tashkent, 2006. (in Uzbek)
2. Matyoqubov, O. *Maqomot* [Maqomat]. Tashkent: Musiqa, 2004. (in Uzbek)
3. Navoiy, A. *Mahbub ul-Qulub* [Beloved of Hearts]. Tashkent, 1972. (in Uzbek)
4. Husayn Voiz Koshifiy. *Futuvvatnomai sultoniy* [The Sultan’s Book of Chivalry]. Tashkent, 2011. (in Uzbek)
5. Dmitriev, L. B. *Osnovy vokal'noy muzyki* [Fundamentals of Vocal Music]. Moscow, 1968. (in Russian)